

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI KONSTRUKSIYALASH VA MODELLASHTIRISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Haydarov Mirjalol Shog'dorovich

JDFU o'qituvchi

Sherqulova Sevinch Olim qizi

JDFU talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15449836>

Zamonaviy ta'lim jarayoni pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarning doimiy yangilanishini talab qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda darsni samarali tashkil etish va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishda o'qituvchining konstruksiyalash va modellashtirish kompetensiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kompetensiyalar orqali o'qituvchi o'quv jarayonini ilmiy asoslangan holda loyihalash, dars jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish va o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos metodik yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniga ega bo'ladi. Bu o'z navbatida har bir bo'lajak kasb egasining o'z kasbini yuksak darajada egalashi uchun zaruriy omildir. Shaharsozlik yoki qurilish, texnologik rejalar, modellashtirish va boshqa barcha turdagi konstruksiya ishlarida albatta zamon talabiga mos holda texnik va ijtimoiy talablarga javob beruvchi samaraga erishish uchun kichik yoshdan shakllantirish bo'yicha asosiy talab boshlang'ich sinf o'qituvchisiga katta bog'liqdir. Bundan ko'rinib turadiki bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisida yuqorida ta'kidlaganimizdek, konstruksiyalash va modellashtirish kompetensiyasini rivojlantirish talab etiladi. Bu o'z navbatida yangicha qarashga bo'lgan ijobiy faiklarni takomilashtiradi.

Konstruksiya (lotincha: *constructs* - tuzilish, qurilish) — 1) mashina, inshoot yoki o'zel va detallarning tuzilish sxemasi, shuningdek, mashina, inshoot, hamda ularning detallari. Konstruksiya da kerakli qism va elementlarining shakli hamda o'zaro joylashishi, ularni birlashtirish usullari, o'zaro ta'siri va qanday materiallardan yasalishi hisobga olinadi; 2) ilmiy yoki badiiy asarlarning tuzilishi (qarang Kompozitsiya); 3) bir sintaktik birlikni tashkil qiluvchi so'zlar birlashtirishi.^[2]

Konstruksiyalash kompetensiyasi nima?

Pedagogik konstruksiyalash — bu o'qituvchining o'quv jarayonini rejalashtirish, dars mazmunini tizimli tuzish, o'quv vazifalarini aniqlash va ularni bosqichma-bosqich amalga oshirishga qaratilgan faoliyatidir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi bu ko'nikmaga ega bo'lishi orqali har bir darsni puxta tayyorlab, zamonaviy didaktik vositalardan foydalangan holda darsni samarali o'tkazishi mumkin.

Modellashtirish — ilmiy faoliyatining keng tarqalgan shakllaridan biridir. Barcha fanlarda modellashtirilayotgan hodisalar haqida ma'lumot olishda, farazlar va nazariyalarni ishlab chiqishda modeldan foydalaniladi. Shu jumladan tarixchilar ham bu uslubdan tadqiqotlar jarayonidan keng foydalanadilar. Tarixiy hodisalarni modellashtirish mantiqiy shakllantirish yordamida amalga oshiriladi, ya'ni fikran mazmun-vazifaviy reja shakllantiriladi. Modellashtirish soddalashtirish, ideallashtirish va abstraktlashtirish bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.^[3]

Modellashtirish kompetensiyasi haqida

Modellashtirish esa real o'quv jarayonini abstrakt ko'rinishda aks ettirish, ya'ni uni soddalashtirilgan model orqali ko'rsatish jarayonidir. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun tushunchalarni osonroq qabul qilish, mavzuni vizual ko'rinishda tushunishlari uchun o'qituvchining modellashtirish kompetensiyasi zarur. Bu ko'nikma darslarda grafiklar,

diagrammalar, jadvallar, texnologik xaritalar va boshqa vizual vositalardan foydalanishga asoslanadi.

Kompetensiyalarni shakllantirishning usullari

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konstruksiyalash va modellashtirish kompetensiyalarini rivojlantirish uchun quyidagi metodlardan foydalanish samaralidir:

1. **Amaliy mashg'ulotlar** – dars loyihasini ishlab chiqish, interaktiv dars ishlanmalarini yaratish orqali o'quvchi-o'qituvchi faoliyatini modellashtirish.
2. **Kechikkan holatlarni tahlil qilish (case-study)** – real ta'limiy vaziyatlarda qaror qabul qilish orqali o'qituvchi fikrlashini konstruktiv rivojlantirish.
3. **Multimedia va AKT vositalaridan foydalanish** – vizual taqdimotlar, interaktiv modellar orqali mavzuni tushuntirishga yordam beradi.
4. **Kreativ loyiha ishlari** – o'quv rejasi asosida yangi dars metodikasi yoki innovatsion ko'rgazmali qurollarni ishlab chiqish.

Yuqorida sanab o'tgan barcha nazariy va amaliy jarayonlarda o'z aksini topayotgan texnikaviy yangiliklar asosida ta'lim tizimiga yangilik kiritish orqali biz mamlakatimiz ta'lim tizimni oshirishimiz mumkin bo'ladi. Misol tariqasida hozirgi yosh avlodni doskaga mantiqiy misol va hayotiy tasodiflar orqali shakllantirish natija bermaydi, shu bilan birga ularni darsga bo'lgan qiziqishi va kasbga tayyorlov kompetensiyasini shakllantira olmaymiz, tasavvur va amalda bajariladigan amaliy darslarda yoki ekskursiyalardagi bilim va malakalari orqali tasavvur doirasi kengayishi hamda amalda bajarish qobiliyati rivojlanishi o'z-o'zidan shakllanishi nazarda tutilganini e'tirof etish kerak. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida biz qaysi sohani yoki ta'limotni rivojlantirsak ushbu amalga qarab bizning ertamiz bo'lgan boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida ham ana shu bilim, malaka va ko'nikmalar shakllandi va vatanimiz ravnaqi uchun xizmat qilishi bor gapdir.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun konstruksiyalash va modellashtirish kompetensiyalarini rivojlantirish muhimdir. Bu kompetensiyalar pedagogni nafaqat darsni samarali rejalashtirish, balki o'quvchilarning individual va guruhviy ehtiyojlariga mos keluvchi ta'limiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlaydi. Shu bois pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun bu ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar ta'lim dasturlarida keng o'rin olishi lozim.

References:

Используемая литература: Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Ilhomov Ziyovutdin Adxamovich. *Tarix fanining nazariy asoslari* (O'zbek), 2020 — 111--bet.
4. Hamidova B. M. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashga metodologik yondashuvlar. Guliston davlat universiteti ilmiy axborotnomasi 2023-yil 4-son.101-103 betlar.
5. <https://kun.uz/news/2020/06/12/>
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki>.